

The general concept and importance of history teaching methodology in comprehensive secondary schools

Bobirjon SAFAROV¹

National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025
Received in revised form
15 February 2025
Accepted 15 March 2025
Available online
25 April 2025

Keywords:

History education,
historical thinking,
methodological
development of history
teachers.

ABSTRACT

This article explores the general concept and significance of the methodology of teaching history in general secondary schools. The author emphasizes the need to develop students' historical thinking and foster a critical and independent approach to studying historical events. The study includes an analysis of both domestic and international experiences, particularly the approaches of Peter Seixas, Sirkka Ahonen, Robert Thorp, and others. The relevance of applying research-based teaching methods and innovative pedagogical technologies is justified. Special focus is given to the teacher's role in generating student interest and enhancing analytical thinking through history education.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2-pp93-99>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish metodikasining umumiy konsepsiyasi va ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tarix ta'limi,
tarixiy tafakkur,
tarix fani o'qituvchilarning
metodik rivojlanishi.

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish metodikasining umumiy konsepsiyasi va uning ahamiyati tahlil etilgan. Muallif tarixiy tafakkurni shakllantirish, tanqidiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va o'qituvchining roli muhimligini asoslab bergan. Xorijiy olimlar – Piter Seixas, Sirkka Ahonen, Robert Thorp kabi tadqiqotchilarning yondashuvlari tahlil qilinib, ularning tajribasi asosida maktablarda tarixni samarali o'qitish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotga asoslangan metodlar, interfaol texnologiyalar, o'yinli yondashuvlar va tarixiy tafakkurni

¹ PhD student, National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni.
E-mail: bobur.safarov.94@mail.ru

rivojlantirish usullari maqola asosini tashkil etadi. Tarix fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

Общая концепция и значение методики преподавания истории в общеобразовательных школах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

преподавание истории, историческое мышление, методическое развитие учителей истории.

В статье рассматривается общая концепция и значение методики преподавания истории в общеобразовательных школах. Автор акцентирует внимание на необходимости развития исторического мышления у учащихся, критического и самостоятельного подхода к изучению исторических событий. Проведен анализ отечественного и зарубежного опыта, включая подходы Питера Сейкса, Сиркки Ахонен, Роберта Торпа и других. Обоснована актуальность внедрения исследовательских методов в преподавание истории, а также использования инновационных педагогических технологий. Особое внимание уделено роли учителя в формировании интереса учащихся к предмету и развитию их аналитического мышления.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida tarixni bilish har doimgidan ko'ra yanada muhim ahamiyat kasb etgan. Dunyoda yuz berayotgan sivilizatsion o'zgarishlar esa maktablardagi tarix fani o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish masalasini tadqiqotchilarning diqqat markaziga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun, PQ-3105-sonli, "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining o'ziyoq tarix va tarixni o'qitish mamlakatimiz siyosiy hayotida nechog'lik muhimligini asoslab berdi. Tuzilgan jamoatchilik kengashining asosiy vazifasi O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini, mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirish etib belgilangan [1]. Maktablarda tarix darslarini o'rgatishdan asosiy ko'zlangan maqsad har qanday yod g'oyalarga manipulyatsiya bo'lmaydigan, jamiyatga o'z qilayotgan ishlari orqali foyda keltiradigan fuqarolarni tarbiyalashdir. Tarixni o'rganish orqali o'quvchilarda intellektual va axloqiy mezonlar rivojlantiriladi. Ular tarixni tanqidiy tafakkur orqali o'rganish davomida Nimaga? Qachon? Qayerda? degan savollarga javob izlash jarayonida tarixiy tafakkur darajasi rivojlanib boradi. Hozirgi kunda tadqiqotchilarimiz oldida axborot asri yanada rivojlanib borgan bir pallada yoshlarni turli xil manipulyativ g'oyalarga aldanmasligi uchun maktablarda tarix fanini qanday qilib yanada samarali o'rgatish muammosi dolzarblik ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Tarix ta'limi o'quvchilarni turli stereotiplarga, diniy va dunyoviy buzg'unchi g'oyalarga qarshi hurfikrlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarix fani shunchaki o'tilishi kerak bo'lgan fan emas, balki voqea va hodisalarga ongli, tanqidiy, empatiya bilan qaraydigan yoshlarni shakllantiruvchi asosiy gumanitar

fanlardan biridir. Tarix fani darsini samarali o'tishga asoslangan metodikalarning umumiy konsepsiyalari, xorij tajribasi, tadqiqotchilarning taklif va mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix fani darsini samarasini oshirish masalasi 20-asrning 70-yillaridan boshlab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar, tarixchilar va tarix fani o'qituvchilarini e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Muammoga yechim tarzida o'z modellarini, nazariy dasturlarini ilmiy nashrlarda e'lon qilishgan va bu jarayon hali ham to'xtab qolgani yo'q. Chunki ular taklif qilayotgan yechim barcha davlat va hududlar uchun birdek qulay va samarali yechim taklif etmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI VA QO'LLANILGAN METODLAR

Tadqiqot jarayoni mavzuga oid adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil va xorijiy olimlarning maktablarda tarix fanini o'qitish metodikasining umumiy konsepsiyasi va ahamiyati mavzusidagi tadqiqot natijalarini tahlil qilish metodlari asosida olib borildi. Shuningdek ushbu olimlarning xulosalari va bergan takliflaridan faol foydalanildi. Tadqiqotchi olimlar Maroz Petro Volodimirivich va Moroz Irina Volodimirovnaning *"Conceptual bases of the research activity in the process of teaching world history at the secondary school"* nomli taqdiqod ishida asosiy e'tibor asosan o'quvchilarning belgilangan topshiriqlariga emas balki, mustaqil izlanishlariga berilgan. Shuningdek o'qituvchilarga bu jarayonni nazorat qilishda nimalarga e'tibor berishlari borasida tavsiyalar keltirilgan. Olima Sirkka Ahonen *"Historical consciousness: a viable paradigm for history education"* nomli tadqiqot ishida asosan tarixiy tafakkur orqali tarix ta'limini rivojlantirish mumkinligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari suradi. Tadqiqotchilar Robert Thorp va Anders Persson *"On historical thinking and the history educational challenge"* nomli maqolasida tarixiy tafakkur borasida tadqiqot olib brogan Peter Seixas modeli maktab tarix darsi akademik tarix dars saviyasida bo'la olmasligi va uning modelida o'quvchilarning mustaqil ishlash imkoniyatini chegaralab qo'yganligini tanqid ostiga oladi.

TAHLILLAR

Tadqiqotchilar Epstein va Fosterlar turli mamlakatlardagi maktablarda tarix ta'limi o'rtasida shakl va maqsad jihatidan farq borligiga e'tibor qaratishgan. Ular o'z tadqiqotlarida ba'zi davlatlardagi maktabda o'tiladigan tarix darslari va darsliklarida davlatga sodiqlik va milliy g'ururni shakllantiruvchi qurol sifatida foydalanishlarini keskin qoralashadi [2]. Ushbu tadqiqotchilar tarixni o'rganishda dalillar orqali tadqiq etish hamda tarixiy ong ta'sirida talqin qilish g'oyalarini ilgari surishadi. Tarix darslarida tadqiqot usulining konseptual asoslarini ishlab chiqish va uni tarix o'qituvchilarga malaka oshirish kurslaridagi ahamiyatini tushuntirish samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Tadqiqot usulini qo'llash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1. Muammoni aniqlash- ko'plab yechimga olib keladigan muammoli savol tanlash.
2. Gipotezalarni shakllantirish- o'quvchilarga savol yuzasida farazlarni ishlab chiqishda yordam berish.
3. Manbalarni tahlil etish – turli manbalar bilan ishlash strategiyasini o'quvchilarga o'rgatish.
4. O'z-o'zini o'qitish – mustaqil ravishda o'rganishni rag'batlantirish.
5. Tadqiqotchi nuqtai nazari-muammoga tadqiqotchi nazari bilan qarash ko'nikmasini shakllantirish.
6. Natijalarni taqdim etish – muammoni javobini samarali yetkazib berish usullarini o'rgatish.

O'quvchilarga tarixni o'rganishda tadqiqot usulidan foydalanish kelajakda nafaqat tarix, balki istalgan muammolarga mustaqil javob izlash ko'nikmasini shakllantiradi va uning shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Tadqiqot usulida muammoga yechim topish maqsadida turli manbalar: xaritalar, tarixiy hujjatlar, fototasvirlar, kundaliklar va yana boshqa manbalar asosida o'quvchilar muammoga shaxsiy fikr bildiradilar hamda shu orqali ularda tarixiy ong shakllana boshlaydi. Bu usuldan foydalanish orqali o'quvchilarning yoshi va dunyoqarashini rivojlantirish ehtimoli katta, ayniqsa bu boshlang'ich sinflarda tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi. Tadqiqotchilar Maroz Petro Volodimirivich va Moroz Irina Volodimirovna tarix darslari metodikasini rivojlantirish uchun tadqiqot metodini rivojlantirishni targ'ib etadilar, ular bergan yechimning foydali xususiyatlari shundaki, o'quvchilarda mustaqil manba topish qobiliyati shakllanadi. Lekin bu usulni qo'llashda bir qator kamchiliklari ham bor. O'quvchilarda mustaqil izlab topgan manbalarning to'g'riligi va ishonchliligini baholash bo'yicha malakaning yetishmasligi ularda noto'g'ri tushunchalarni paydo qilishga olib kelishi mumkin. Ko'plab manbalarning hozir qo'llanilmaydigan yozuvdaligi yoki asl nusxa va tarjimalarning aniq bo'lmasligi manbalar bilan ishlash samaradorligini pasaytiradi. O'qituvchilar va o'quvchilar tadqiqot usulini dars jarayonida qanday qo'llash bo'yicha dasturning mavjud emasligi, bu usulni qo'llash ko'p vaqt talab etgani uchun jarayonda vaqt menejmentiga alohida e'tibor berish lozim. Darslik va tadqiqot usulida topilgan ma'lumotlar o'rtasida farq bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarda fikriy nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Agarda tadqiqot usuli doimiy va to'g'ri tanlangan yo'nalishda olib borilsa, albatta o'quvchilarning tarix darslariga bo'lgan qiziqishlari samaradorligini oshiradi.

AQShda universitetlarga kirish imtihonlarida tarix fanidan o'quvchilarning past ball to'plashlari tadqiqotchilarni tarix ta'limini qayta ko'rib chiqish masalasini o'rta tashladi. O'quvchilar AQSh tarixi fanidan me'yorlashtirilgan savollardan past ball to'plashi milliy sharmandalik sifatida qaraldi. Tahlilchilar tomonidan o'quvchilarning ballari pastligiga sabab qilib o'qituvchilarning ularga yetarlicha bilim bermayotganligi ko'rsatildi. Oqibatda o'qituvchilar yangicha qarashlardan foydalanish o'rnida ko'proq tarixni xronologik usulda yodlashga urg'u berdilar va tizim yaxshilanmasligiga sabab bo'ldi. Ko'plab tadqiqotchilar tarixiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish orqali tarix ta'limini rivojlantirish mumkinligi g'oyasini ilgari surishadi. Zamonaviy pedagoglarga amaliy konsepsiyalar va ularga konkret yordam ko'rsatadigan ularning metodikasini oshirishga yordam beradigan qo'llanmalar salmog'i yetarli emas. Shu sababli ham ko'plab tarix fani o'qituvchilari an'anaviy uslubda dars o'tadilar, o'quvchilarning test va kontekstlarni yodlashiga jiddiy e'tibor qaratadilar. Bu esa o'quvchilarda tarixiy voqealarni tahlil qilish va undan xulosa chiqarish imkoniyatlarini keskin kamaytiradi. Tarix ta'limidagi dastlabki islohotlar ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar ichida Angliyada 1972-yilda kuzatildi. Ushbu loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad an'anaviy yodlash texnikasiga mo'ljallangan tarix ta'limini o'zgartirishdan iborat edi. Loyihaning asosiy obyekti tarix ta'limida o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar hisoblangan va Britaniya maktablar kengashida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash hamda dalillar asosida tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat edi.

Ushbu loyiha quyidagi loyiha va tamoyillardan iborat:

1. Tarixiy dalillardan mustaqil foydalangan holda tahlil qilish;
2. Tarixni faktlar majmui sifatida emas, balki vaqtlar o'tishi davomida davlatlar, madaniyatlar va jamiyatlar qanday o'zgarganini jarayon sifatida ko'ra olish qobiliyatini shakllantirish.

3. Tarixiy faktlarni yodlash emas, balki sabab va natijalarini ko'ra olish.

4. Tarixiy jarayonlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlab olish.

5. O'quvchilarni passiv tinglovchi roldan mustaqil o'z ustida ishlaydigan o'quvchiga aylantirish [5].

SCHP loyihasi tarixiy tafakkurga asoslangan tarix ta'limi metodologiyasini shakllantirishga asos bo'ldi va Buyuk Britaniya, AQSH va Kanadada maktab tarix ta'limini o'zgartirishga o'z hissasini qo'shgan. Tadqiqotchi Peter Seixas o'z tadqiqotlarida tarixiy tafakkur tushunchasini turli davlatlar (Buyuk Britaniya, AQSH, va Kanada) talqinidagi farqlar va uning fandagi ahamiyatini isbotlashga harakat qilgan. Biz yuqorida ko'rib chiqqan tarixiy tafakkur tushunchasiga Buyuk Britaniyada 2-darajali konsepsiya sifatida qaralgan bo'lsa, Germaniyada 1-darajali konsepsiya sifatida e'tibor qaratilgan. Tarixiy tafakkur tushunchasini o'rgatishni esa jamiyat va shaxsiy tushunchalar yordamida bog'lab tushuntirishga harakat qilishgan. Peter Seixasning tarixiy tafakkurning 6 usuli hozirda ham Kanada maktab tarix ta'limida keng qo'llanilishiga sabab bu model o'quvchilarda keng dunyoqarash va voqea hodisalarga mustaqil fikr berish qobiliyatini shakllantiradi. Maktab tarix darsliklari ham shu model g'oyasi ta'sirida yaratilgan. Ushbu model barcha davlatlar tarix ta'limida birdek muaffaqiyat keltirmaydi. Nemis tarixshunosi Rusen tarixiy ong tushunchasi 4 bosqichda bo'lishini isbotlab bergan, bular:

1. An'anaviy bosqich – bunda o'quvchilar tarixiy voqealarni oddiy hikoya tarzda qabul qiladilar va ulardagi farqlar mohiyatini to'la anglab yetmaydilar.

2. Ibrat bosqichi-bunda o'quvchilar o'tmishdan ibrat oladilar va tarix takrorlanishdan iborat degan xulosaga keladilar.

3. Kritik (tanqid) bosqichida o'quvchilar tarixga tanqid ko'zi bilan qaraydilar va shaxsiy qarashlarini olg'a suradilar.

4. Dinamik bosqich – bu jarayonda o'quvchilar tarixni kelajakka ta'sirini o'rganadilar.

AQSH maktab ta'limida tarix fani tadqiqotga yaqinlashtirilgan holda o'quvchilar mustaqil izlanishi tamoyiliga asoslangan holda olib boriladi. Tadqiqotchi Peter Seixas Kanadada tarix ta'limining Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSH ta'limi yondashuvlaridan ilhomlangan holda yangi modelini tashkil etgan. Bu modelga Historical Thinking Project (HTP ya'ni tarixiy tafakkur loyihasi) deb nom berilgan. Loyiha Buyuk Britaniyada qo'llanilgan 2 darajali tarixiy tafakkur nazariyasi asosida tashkil etilgan va o'z navbatida AQSH tarixiy ta'limida qo'llanilgan tadqiqotchilik, mustaqil izlanuvchanlikni targ'ib qilish vositalari ham mavjud. Tadqiqotchilar Robert Thorb va Anders Personlar bu qarashlari bilan Sexiasning modeli o'quvchilarda tanqidiy fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasini inkor etmaydilar. Shuning bilan birga bu yagona yechim ham emasligini ta'kidlab o'tadilar. Tarixiy voqealarning boshqalar talqinidagi nazariyalarni ham tushunish lozim va buni tarix o'qituvchilarni o'z o'quvchilarga o'rgatishlari lozimdir. Ayni vaziyatda biz o'rganayotgan tarix biz yashab turgan muhit va madaniy holatga ham uzviy bog'liqdir. O'qituvchilar nafaqat tarixni o'rgatishlari balki shaxsiy va boshqalarning tajribalari asosida tarixni o'rganishni tushuntirishlari lozimdir. Shu orqali tarix ta'limi insonparvarlashtirilishi mumkin. Tarix ta'limi bu faqatgina akademik tarix nazariyalarni o'rgatish emas balki fuqarolarni kelajakka tayyorlaydigan fanlar sirasiga kiradi. O'quvchilarga akademik tarixni o'rgatishdan tashqari ularni ijtimoiy va siyosiy jihatdan tarbiyalashni ham unutmaslik kerak. Hozirgi kunda internet tizimining nihoyatda rivojlanganligi muqobil tarzda o'quvchilarning bu ma'lumotlarni baholash qobiliyati yetishmasligi, o'qituvchilarning zamon talablariga moslashishda qiyinchiliklarga uchrayotgani turkiyalik tadqiqotchilarning ham bu muammolarga e'tibor qaratishga sabab bo'ldi. Tarix o'qituvchilar fanning passiv hikoyachilari emas, balki jonli

ishtirokchilari bo'lishi, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga uchramasligi lozim. O'qituvchilarning zarur bilim va ko'nikmalariga egaligidan tashqari o'quvchilarda ham bazaviy bilimlarga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Shundagina dars mashg'uloti zerikarli bo'lmasligi ta'minlanadi. Bu borada tadqiqotchi tajriba ham o'tkazib ko'radi, ya'ni universitetda ta'lim olayotgan 30 nafar ishtirokchi (mamlakatning turli qismidan kelgan ularning 15 nafari tarix yo'nalishida, 15 nafari esa matematika yo'nalishi talabalari) bo'lib, ulardan intervyu tarzda suhbat qilinganida ularning maktab davridagi tarix o'qituvchilarining shaxsiy sifatlari va qo'llagan metodlari ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etganligi aniqlangan. Ulardan tarix fanini yoqtirishining asosiy sabablari so'ralganda, 30 nafardan 20 nafari o'qituvchining dars o'tishdagi mahorati sabab tarix darslariga qiziqishgani, 5 nafari esa yoqtirmasligi va bunga shaxsiy qiziqishlarini sabab qilib ko'rsatgan bo'lsalar, qolgan 5 nafar ishtirokchi betaraf pozitsiyada qolgan [8]. Albatta tarix fani o'qituvchisining shaxsiy fazilati va qiziqarli metodlardan foydalanishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, lekin noto'g'ri metodni qo'llashi esa o'z navbatida o'quvchilarni qiziqishlarini pasaytirishi ham mumkin. O'qituvchining faol tarzda o'z ustida ishlashi uning nafaqat kasbiy rivojlanishi va tarix darsining samarali, shu bilan birga qiziqarli qilishini tadqiqotchi ta'kidlab o'tadi. Lekin hamma mas'uliyatni o'qituvchiga qo'yish faqat unga mas'uliyatni yuklash orqali sifatli dars mashg'ulotiga erishib bo'lmaydi. Bunga albatta o'quvchilarning ham mustaqil ishlashlari, tarixiy voqea hodisalarga tanqidiy nazar tashlash qobiliyatisiz erishib bo'lmaydi. Hozirgi kunda o'quvchilarning tarix darsiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va an'anaviy darslar o'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini yetarli darajada qondira olmasligini hisobga olgan holda tarix fanida o'yin metodidan foydalanish samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Dars jarayonida o'yin metodidan foydalanish orqali o'quvchilar savol-topshiriqlarga javob topsa, dofamin garmoni ajralishi kuchayadi va ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Lekin bu metodlarni me'yorida qo'llash lozim agarda me'yoridan oshirilsa, bu metodning samarasini kamaytiradi. O'yin metodini qo'llashda vaqtni aniq taqsimlash va unga rioya qilish talab etiladi.

NATIJA

Maktablarda tarix fanini o'qitish metodikasi konsepsiyasi va uning ahamiyati zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirish, tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, samarali tarix ta'limi quyidagi jihatlariga bog'liq:

1. Tarix ta'limini samarali qilish uchun o'qituvchilar o'zlari qo'llayotgan metodlarning ahamiyati, qo'llash strategiyalarini mukammal bilishlari va uni qo'llash jarayonini izchil tashkil etishlari talab etiladi. Bu metodlar samarasining katta qismi tarix fani o'qituvchilarning shaxsiy sifatlariga bevosita bog'liq.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash – tarix darslarida interfaol usullar, raqamli resurslar va muqobil ta'lim yondashuvlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli rivojlantiradi.

3. Tarixiy tafakkurni rivojlantirish – faqatgina faktlarni yodlatish emas, balki tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga yo'naltirish muhimdir. Tarix fani o'qituvchilarning tarixiy tafakkur konsepsiyasi haqida bilimlarini oshirishi kelajakda ularning metodikasini rivojlantiradi va ular tarbiya qilgan o'quvchilarning bilimlari va dunyoqarashlarini rivojlantiradi.

4. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ta'lim – tarix darslari o'quvchilarda o'zlikni anglash, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik va tarixiy jarayonlarga tanqidiy yondashuv shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

O'rganilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, tarix fanining samarali o'qitilishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning ijtimoiy faolligi va ma'naviy yetukligini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tarix ta'limida yangi innovatsion metodlardan foydalanish, o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy rivojlantirish orqaligina biz kutgan samarali va sifatli tarix darsiga erishish mumkin.

XULOSA

Maktablarda tarix fanini o'qitish metodikasining takomillashtirilishi ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, quyidagi tavsiyalar asosida rivojlantirilishi lozim:

1. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish – tarix darslarini interaktiv va qiziqarli qilish uchun AKT vositalari, virtual ekskursiyalar, tarixiy hujjatlar va multimedia resurslarini qo'llash lozim.

2. O'qituvchilarning tarixiy jarayonlarni faqatgina faktlar asosida emas, balki ularning sabab-oqibat aloqalarini o'rgatishga qaratilgan metodikalarini rivojlantirish.

3. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish – tarix fanining adabiyot, geografiya, iqtisod va huquq kabi fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali o'quvchilarning keng dunyoqarashini shakllantirish mumkin.

4. O'qitish metodikasini muntazam takomillashtirish – pedagoglarning malakasini oshirish, yangi metodikalar va yondashuvlarni o'quv jarayoniga joriy etish zarur.

Shunday qilib, tarix fanini samarali o'qitish nafaqat o'quvchilarning bilim saviyasini oshiradi, balki ularning tanqidiy fikrlashi, tarixiy voqealarga obyektiv yondashuvi va ijtimoiy faolligini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. PQ-3105-sonli, "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori. Lex.uz.

2. Epstein T. *Research methodologies in history education*. – Charlotte, NC: Information Age Publishing, 2009. P.23-26.

3. Maroz P.V, Maroz.I.V. *Conceptual bases of the research activity in the process of teaching world history at the secondary school*. Український педагогічний журнал № 3. -2015. P.102-111.

4. Sirkka Ahonen. Historical consciousness: a viable paradigm for history education? *Journal of Curriculum* November-37Vol.-2005. P 698-707.

5. Peter Seixas. A Model of Historical Thinking. *Educational Philosophy and Theory*.-2015.10.27.P1-13.

6. Peter Seixas. A Model of Historical Thinking. *Educational Philosophy and Theory*.-2015.10.27.P1-13.

7. Robert Thorp, Anders Persson. On historical thinking and the history educational challenge. *Educational Philosophy and Theory*.UK,-2020.P.892-901.

8. Meliha Köse. The Role of High School History Teachers on University Students' Attitudes toward History Classes. *Kuram ve uygulamada eğitim bilimleri educational sciences: theory & practice* April 26, -2017.-P 1291-1316.

9. Keith C, Barton, Linda, S. Levst. Why don't more history teachers engage students in interpretation. *Research and Practice Social Education* 67(6),-2003.-P 358-361.

10. F.Axmedshina, F.Aqchayev. Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish, Tashkent, -2018.17-20.